https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti
O’zbek tili va adabiyoti yo’nalishi 3-kurs 303-guruh talabasi
Tirkasheva Sevara

CHORVACHILIK BILAN BOG'LIQ IRIM-SIRIMLAR VA MAROSIMLARNING HAYOTIMIZDAGI O'RNI

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek xalqining qadimda boshlangan chorvachilik bilan bog'liq irim-sirimlari, marosimlari, e'tiqodlari tahlil qilindi. Bu irim-sirimlarning qadimdan to bugungi kungacha yetib kelganlari ham yo'q emas. Bu maqolada xalqning an'analari asosida to'plangan chorvachilikka oid irim-sirimlar K.Imomovning faktlariga tayangan holdagi ma'lumotlarini ham berib o'taman. Bu urf-odatlarda asosan, baraka yoki hayvonlarni himoya qilish magikasi ishonchli turibdi. Chorvachilik xo'jalik turlarining eng qadimiy ko'rinishlaridan biri ya'ni tirikchilik manbai hisoblangan.

Kalit so‘zlar: Chorvachilikka oid irim-sirimlar, baraka tushunchasi, xalq orasidagi e'tiqodiy qarashlar.

Bizning o‘zbek xalqimizning ijtimoiy va maishiy hayoti qadimga bog'laydigan bo‘lsak , qadimdan chorvachilikka oid jarayonlar, urf-odatlar, irim-sirimlar, ishonch va e'tiqodlar xalq orasida shakllanib kelgan. Chorvadorlarning turmush tarzi qadimdan boshlab ma'lum bir darajada o'rganilgan. Ammo bu kabi qarashlar haqida tadqiqot ob'ekti tarzida maxsus tarzda tadqiq etilmagan. Biz bilamizki, qadimgi davrlardan, ya'ni jonivorlarni qo‘lga o'rgatish va ularni xonakilashtirish jarayoni boshlangandan keyin chorvachilikka oid irim-sirimlar, marosimlar va urf-odatlar hayvonot olamiga bo‘lgan munosabatlarni yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Makon va zamon o‘rtasidagi o'sha davrning ya'ni qadimgi va bugungi davrning diniy e'tiqodi aks etgan. Biz uchun eng ahamiyatlisi bu chorvachilikka oid irim-sirimlar va marosimlar va qarashlar islomgacha bo‘lgan diniy e'tiqodlar va

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qarashlar bilan bog'liq. Zardushtiylik dinining muqaddas kitoblarida ham chorvaga, ayniqsa, ot va qoramollar uchun alohida izohlar keltirilgan[1].

[1]A. Ashirov, O‘zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari.Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent-2007. 146-bet.

„Avesto " kitobining xabar berishicha mayda barakali hayvonlar sifatida, Axuramazda: „ Bunday joy qo‘ylar suruvi va mevalar uyuri eng ko'p parvarish qilinadigan zamin" deya aytib o'tgan ekanlar.Endi esa ayrim viloyatlarda chorvachilikka oid qadimiy diniy e'tiqodlar va ular bilan bog'liq urf-odatlar va marosimlarni birma-bir tahlil qilamiz. Yurtimizning tog'li va tog‘ oldi yerlari chorvachilikni rivoji uchun eng muhim vosita sifatida qaraladi. Chorvachilikda asosan dehqonchilik bilan shug'ullanadigan insonlar shug'ullanganlar. Buning sababi, ishchi kuch, ulov, qo'shimcha kuch yoki daromad manbai sifatida foydalanganlar. Xalq orasida bu kabi urf-odatlar, irim-sirimlar, ishonchlar,e'tiqodlar bekorga o'tkazilmagan. Ulardan ko‘zlangan maqsad bor bo‘lgan. Bundan maqsad chorvachilikni rivojlantirish, ko'paytirish, kasalliklarga qarshi kurashish, ularga keladigan balo-qazolardan, yovuz kuchlar, yomon ko‘zlar-u ziyon-zahmatlardan asrash maqsadida bu tadbirlar yilning ya'ni mavsumning turli vaqtlariga kelib o'tkaziladigan irim-sirimlari ham bor[2]. Bu irim-sirimlarni ham o‘z o‘rnida ma'lum bir guruhlarga bo‘lib tasniflab o'rganib kelishmoqda. Chorvachilikni taqvimiy me'yorlarga asoslangan holda ikkiga bo'lib o'rganiladi. Birinchi guruhga chorvani bahorda yaylovga haydovchilar haqida bo‘lsa , ikkinchi guruh esa chorvaning qishki yaylovdan qaytarib, bahorga qadar yoki yozgi yaylovga ketish paytiga qadar turli xil urf-odatlar, irim-sirimlar shular jumlasidandir. Chorvachilikda yil hisobini o‘n oltinchi martdan boshlangan.Negaki, o‘t-o‘lanlar erta chiqib ko‘kara boshlagani hisobiga erta ya'ni martdan boshlagan.Har yil hisobiga chorvani cho‘ponlar yoki chorvadorlar yaylovga olib chiqishdan oldin „cho‘pon ota "va „Zangi ota" bag'ishlab qurbonliklar qilingan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

va „Zangi otaga" bag'ishlab qurbonliklar qilingan va „is" chiqarilgan. Taniqli folklor shunos olimlarning izlanishlariga binoan har bir hayvonlarning alohida-alohida pirlari bo‘lgan. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, chorvani bir joydan ikkinchi joyga o‘tkazish o'ta ma'suliyatli ishlardan biri sifatida qaralgan.

[2]A.Ashirov, O‘zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari.Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent-2007. 147-bet.

Shu sababli ham chorvani ikkinchi bir joyga o'tkazayotganda cho‘ponlar tomonidan chorvani ustidan olov yoqib o'tkazganlar.

Bundan maqsad chorvaga yomon ko‘zlar tegmasin, yovuz kuchlardan saqlansin deya poklab o'tkazganlar. Cho‘ponlar chorvani bir joydan ikkinchi bir joyga o‘tkazishda olov, isiriq va „ quron" ni ustidan aylantirish orqali ham poklab ko'chirib o'tkazganlar. Cho‘pon otaga yoki Zangi otaga is chiqarishlar, bu kabi amallarda ham islomiy qarashlarning islomgacha bo‘lgan e'tiqodiy ko‘nikmalarini ko‘rishimiz mumkin. Hayvonlar ichida qo‘ylarni turkiy xalqlar eng muqaddas jonivor sifatida ham ko‘rgan va qo‘y-qo‘zilarni asrab-avaylab alohida ehtirom ko‘rsatganlar[3]. Hattoki ba'zi bir viloyatlarimizda shunday udumlar hali hanuzgacha saqlanib kelinishini ko‘rishimiz mumkin bu qaysi ya'ni xonadonlarda shoxi uzun qo'chqorlar boqishganlar bundan maqsad esa uyga kelgan balo qazolar o‘sha shoxga borib tegsin degan tushuncha mavjud bo'lgan. Shuning uchun ham uzun shoxli qo‘chqor boqishgan yoki ularning kalla suyaklarini osib qo‘yishganlar. Ba'zi bir manbaalarda keltirilishicha qo‘chqor yovuz niyatli kishilarning nigohini bartaraf etish kuchiga ega degan qarash ham bo‘lgan. Cho‘ponlar qo‘ylarni turli xil ins-u jinslardan bartaraf etish xususiyatiga ega deya ba'zi bir uzoq hududli joylarga qo‘ylarni haydab boqqani ketgan payt qo‘y-qo‘zilar o‘yuri yomon narsalardan asraydi degan qarashlar ham bo‘lgan xalqning orasida. Hattoki qadimda qo‘chqor zardushtiylik dinida uy egalarini himoya qila oladi degan ishonchlar ham bo‘lgan. Mashhur arxeolog S.P.TOLSTOVning olib borgan tadqiqotlar ishida ya'ni muqaddas qadamjolarni o'rgangan vaqtida qadomjolar tepasiga qo‘chqor shoxlarini

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

osib qo'yganlar. Insonlar bu qadamjolarga kelib befarzandlar farzand tilab qo‘y shoxlariga ip bog'laganlar, dardiga davo topmayotganlar davo tilab ham ip bog‘lab ixlos qilib niyat qilganlar. Bundan ko‘rishimiz mumkinki, qo‘y va qo‘chqorlarga nisbatan juda yuqori ehtirom bo'lganligini ham ko‘ramiz.

[3]A. Ashirov, O‘zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari.Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent-2007. 150-bet.

Ip bog‘lashdan tashqari shu shoxni chertib ko‘rganda agar shoxdan chumolilar tushsa shu ayol farzandli bo‘ladi degan magik tushuncha ham bo‘lgan. Hayvonlarga insonlar ma'lum bir totem sifatida ham qaragan. Ba'zi bir joylarda qishloqlarning ya'ni urug'larning kelib chiqishi tarixi ham hayvonlar totemi bilan bog'liq tarzda ham nomlanganlari yo‘q emas. Qo‘ylarning shoxini hunarmandlar hattoki so‘zanalarga tushurish orqali ham daromad qilganlar. So‘zanalarga qo‘chqor shoxlarini tushirib kelin va kuyov xonasining tepasiga o‘sha shox tushirilgan so‘zanani ilib qo'yganlar. Bu so‘zanani hali hanuzgacha saqlanib kelayotgan namunalari Samarqand viloyati Ishtixon tumanining ayrim qishloqlarida ko‘rishimiz mumkin. So‘zanani xonaga ilib qo'yishdan maqsad bir xonaning bezagi deb emas ,balki, shu yosh kelin va kuyovni turli xil balo-qazolardan, yomon ko‘zlardan asrash sifatida ilib qo'yganlar ya'ni shu xonaga kim nazar tashlayotgan bo‘lsa shunga birinchi bo‘lib ko‘zi tushsin va balo-qazolar daf bo‘lsin degan magik tushuncha munosabati bo‘lgan. Chorvachilik bilan bog'liq urf-odatlar yuqorida aytganimizdek chorvani balo- qazolardan,kasalliklardan asrashga hamda ularni sergo‘sht bo‘lishi uchun, ko'paytirish uchun mo'ljallangan turli xil sehrgarlik ruhidagi irim-sirimlar, urf-odatlar bor bo‘lgan. Endi esa katta shoxli hayvonlardan buqa timsoli berilgan bu timsol serpushtlik sifatida ham qaralgan. Yangi tug'ilgan buzoqlarga ko‘z tegmasligi uchun tumorlar taqib qo'yganlar. Sigirlarga esa dumlariga qizil yoki oq rangli materiali lattadan ilib qo'yishadi. Sigir tug'ish jarayoni kechikadigan bo‘lsa ham qilinadigan chora tadbirlari

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

bo‘lgan.Bunga misol qilib masalan, sigirning egasi sigirni yetaklab ketayotganida biror bir tanish kishi so'raydi sigirni qayerga olib ketyabsiz, egasi javob beradi bozorga sotgani ancha vaqtdan beri tug‘gani yo'q deydi.Undan keyin boyagi kishi bu gaplarni eshitib yo'q sotmang tug‘ib qolar qaytaring der ekan bu gapi tug‘ish jarayoni tezlashadi degan tushuncha mavjud bo'lganligini ko‘rsatadi. Bu irim-sirimlar uch chorshanba o‘tkalidi. Qoramollar ko‘paygandan keyin sutini ko'paytirish uchun qilinadigan udumlar ham xalq orasida bor. Ba'zi bir joyda sigirlar tug‘gandan keyin sutini oshirish maqsadida dumiga oq rangli ro'mollarini bog‘lab ustidan bir satil suv sepgan. Bu udum sigir suti ko'payishi uchun qilinadi. Sigir tug‘gandan keyingi sigirni birinchi sog‘ishda sigir sog‘adigan kishi o‘tirganda boshidan to yergacha tegadigan darajada uzun bo‘lsin deyilgan. Bundan maqsad sigir yil oxirigacha shu uzun ro'mol kabi uzoq vaqt sut bersin degan magik tushuncha bor. Buning bilan bir qatorda sigir yo‘ldoshining tushishi uchun ham chorvadorlar juda ehtiyotkorlik bilan yondoshganlar. Sigir yo‘ldoshi tezroq tushishi uchun sigirga non beriladi va issiq atala qilib beriladi. Sigir uzining yo‘ldoshini yeb qo‘ymasligi kerak bo‘ladi, agar sigir uni yeb qo‘ysa o‘zini o‘zi emib qo‘yish holatlari ham bo‘lgan. Sigir yo‘ldoshi tushgungacha undan ko‘z quloq bo'lib turadi. Sigir yo‘ldoshi tushib bo‘lgach esa yo‘ldoshini bir chakkaroqqa yoki mevali daraxt tagiga ko‘mishadi. Qoramollarga oid udumlar ham xalq orasida talaygina. Sigirlar tug‘gandan keyin bir hafta ichida ovuz suti keladi. Shu sutdan is va bug‘irsoqlar tayyorlab „ Zangi otaga" bag'ishlab va yaqin qo‘ni-qo‘shnilariga tarqatiladi. Undan so'ng esa yana sut yoki sigirning boshqa bir mahsulotlari quyosh botgandan keyin kishilar so'rab kelishsa berilmagan, mobodoki berilgan taqdirda ham sut idishi ustidan gugurt chaqib yoki biror yorug'likni uch marta aylantirib beriladi. Bu udum hali hanuzgacha saqlanib kelinmoqda misol sifatida Samarqand viloyati Ishtixon tumanining ayrim qishloqlarida ko‘rishimiz mumkin. Bermasligini sababi esa sigir mahsulotlari quyosh botgandan keyin bersa sigir peylanib tepong‘ich bo‘lib qoladi degan ishonch munosabati bor. Chorvalarni bozorga chiqarib sotmoqchi bo‘lsa chorva ustidan ari ini solib tutatilgan isiriq

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

aylantiriladi.Bundan maqsad arilar kabi xaridorlar ham shunday talab olib quysin xaridori ko‘p bo‘lsin degan tushuncha mavjud bo'lgan. Chorvani sotgandan keyin arqonni qaytarib olib kelinadi, chunki mol o‘rniga o‘rin yana kelsin degan magik tushuncha bor, agar olib qaytmasa hosiyatsiz sanaladi. Agar kishilar ro'zg'orni yangidan boshlagan bo‘lsa va ularni hali chorvasi bo‘lmasa og‘ilxonaning bir chakkasiga qoziq qoqib qo‘yish udumi ham bor. Bundan maqsad shu qoziq mol chaqirsin degan ishonch munosabati bo‘lgan. Hattoki o‘sha uy egasi mol bozorga ketganda to bozordan qaytmaguncha hovli supurilmagan. Bundan maqsad barakani uchurmaslik kerak degan magik tushuncha ekanligidir. Undan tashqari qoramollarni tepmaslik kerak deyiladi hali hanuzgacha, chunki ularni ham uziga yarasha devlari bo‘ladi og'irlashib qolmagin deya bolalik dan eshitib kelgan bu kabi magik tushuncha ham yo'q emas albatta. Undan tashqari qoramollar yoki chorva turgan uyur yoniga begona odamlar keladigan bo‘lsa ular ketgandan so'ng albatta uning izlarini topib yetti marotaba pichoqlar yoki bolta yordamida o‘sha odam izini ex tarzida kesishadi. Bundan maqsad yomon ya'ni so‘qlanib qaragan bo‘lsa izi kabi so‘qi ham kesilib ketsin degan magik tushuncha haligacha saqlanib kelinmoqda. Agar chorva kasallanib qolsa kasal tegmaganlaridan alohida ajratib olib isiriq tutatilib ustidan aylantirib yuboradi. Yana chorva agar peshobga chiqolmay qolsa cho‘pon cho‘pi bilan savalagan shu sababli ham cho‘pon tayog‘i juda muqaddas va kerakli bo‘ladi va uni har xil joylarga oyoq taglariga quyib keta verishmaydi.

Xulosa :

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, o‘zbek xalqining qadimdan to bugunga qadar saqlanib kelgan bu kabi irim-sirimlar, urf-odatlar va udumlar xalqning ijtimoiy birdamligi tufayli ham davom etib yetib kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Chorvachilikka oid irim-sirimlar va marosimlar o‘zbek xalqining qadimiy qarashlari ba'zi bir ma'lumotlarga ega ekanligini baraka sifatida chorvani tasavvurining bir qismi sifatida qarashlari ham mavjud. Bu marosimlar tarixda,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

balki bugungi kunimizda ham ma'lum bir darajada hayotimizda ko‘rishimiz tabiiy albatta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Adhamjon Ashirov, O‘zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari.Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent-2007.

2.Xalq orasidan: Shoniyozova Gulruh 1983-yil Samarqand viloyati Ishtixon tumani Azamat MFY.

3.Xudoyorova Sojida 1950-yil Samarqand viloyati Ishtixon tumani Azamat MFY.